



IMOM NASAFIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Abdullayev Me'rojiddin Kamoliddin O'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi

2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p3-96>

ARTICLE INFO

Received: 08th February 2023

Accepted: 16th February 2023

Online: 17th February 2023

KEY WORDS

Nasaf, Abul Barakot Nasafiy, Muhammad Kardariy, tafsir, fiqh, kalom, Kanz ad-daqiq, Tafsir an-Nasafiy.

ABSTRACT

Abul Barakot Nasafiy Movarounnahrda yetishib chiqqan buyuk mufassir, mutakallim, faqih, muhaddis. Movarounnahrda ilmiy, madaniy va iqtisodiy holat tanazzulga tushib qolgan paytda Abul Barakot Nasafiy fidoiy olimlar bilan ilmni jonlantirishga va qayta tiklashga xizmat qilgan. Uning sakkizta asari hozirgi kunda ma'lum bo'lib, bu asarlar ustida ilmiy tadqiqotlar to'xtovsiz davom etib kelmoqda.

Nasafdan etishib chiqqan zabardast olimlardan biri Abul Barakot Nasafiy bo'lib, u islom ilmlarining deyarli barcha sohalarida sermahsul va barcha tomonidan ijobiy qabul etilgan ijodi bilan mashhur bo'lgan.

Abul Barakot Nasafiyning to'liq ismi Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiydir. Uning hayoti haqida malumot beruvchi barcha kitoblarda faqat bobosigacha zikr qilish bilan cheklanilgan. Olimning xalq rasida qadrlab yuritilgan laqabi esa "Hofiziddin" - "dinni himoya qiluvchi"dir. Bu borada aksar tarojim ulamolari ixtilof qilishmagan.¹

Abul Barakot Nasafiyning bunday nom bilan atalishining sababi mo'g'ullar bosqini davrida diniy ilmlarni rivojlantirgani, turli sohalarida ijod qilib, ilm-ma'rifat tarqatganligidir. Bunday nomga muhaqqiq olim Abdulhay Laknaviyning guvohlik berishicha faqat ikki kishi loyiq ko'rilgan bo'lib, ularning ikkalasi ham Buxoroda mo'g'ullar bosqini davrida ilm tarqatgan. Ular Shamsul-aimma Muhammad ibn Abdussattor Kardariy (vaf. 642/1244) izidan borgan shogirdlari Abul Barakot Nasafiy va Abul-Fazl Muhammad Kabir Buxoriylar bo'lishgan.²

Nasafiyning tug'ilgan yili to'g'risida manbalarda aniq ma'lumot yo'q. Ammo vafot etgan yili borasida ko'plab manbalarda (710/1310) yil etib ko'rsatiladi.

Abul Barakot Nasafiy haqida ko'plab arab biografik manbalarida qisqa va bir-birini takrorlaydigan ma'lumotlar berilgan. U adabiyotlarda quyidagicha tavsiflangan:

«Shayx, ulug' imom, peshqadam alloma, yer ahlining ustozi, sunnat va farzni jonlantiruvchi, Qur'on ma'nolarini kashf qiluvchi, ta'vilning nozik jihatlarini biluvchi, ilohiy kalom tarjimoni, maoniy va bayon ilmlari sohibi, fiqh va usul al-fiqhning bilimdoni, aqliy va

¹ Faqatgina alloma Badriddin ayniy Nasafiyning "Kanz ad-daqiq"iga yozgan sharhida uning xalq orasida mashhur bo'lgan laqabi "Hofizul milla vad din" ekanini aytib o'tgan. Qarang: "Ramzul haqiq". J.I. -S. 8.

² "Ramzul haqiq". J.I. -S. 173.



naqliy masalalarning tayanchi, din va millat himoyachisi, islom va musulmonlar etakchisi, payg'ambarlar ilmlarining merosxo'ri, etuk mujtahid, muhaqqiq olimlarning mashhuri»³.

U Nasafda tug'ilgan bo'lsa-da, Buxoroda talim olgan, yoshlik davri diniy-ilmiy muhitda o'tgan, ilm talabida ko'plab mamlakatlarga borgan va katta obro'-e'tibor topgan. Ilmga berilib, siyosiy jarayonlardan uzoqda bo'lgan va ilmiy doiralarda katta shuhrat qozongan. Uning nomi juda ko'p joylarga tarqalgan. Taxminan 1280-yillarda Kirmon shahridagi «al-Qutbiya as-sultoniya» madrasasida mudarrislik qilgan. So'ng, Bag'dodga kelib, u erda talabalarga Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy va o'z asarlaridan ta'lim bergan. Bu davrda u dars berish bilan birga ko'plab mashhur olimlarning asarlariga sharhlar yozgan.

Nasafiy juda taqvodor va diyonatli bo'lgan. Arab va fors tillarini mukammal bilgan. Abdulhay Laknaviy uni «zamonasida tengi yo'q komil imom, fiqh va usul al-fiqh olimlarining etakchisi, hadis va uning ma'nolarida o'tkir olim bo'lgan»,⁴ Ibn Hajar Asqaloniy (773/1372-852/1449) esa «allomai dunyo», deb ta'riflagan.

Manbalarda Abul-Barakotning ustozlaridan bir nechtasi sanab o'tilgan bo'lib, ulardan biri, o'z davrining etuk olimi Shamsul-aimma Abul-Vujd Muhammad ibn Abdussattor ibn Muhammad Imodiy Kardariy bo'lib, u 599/1202-3 yilda Xorazmda tavallud topgan. Kardariy yoshlik davridan ilmga qiziqib, dastlab Xorazmning o'zida, keyinchalik Samarqand va Buxoroda Faxriddin Qozixon (vaf. 592/1195 y.) va Burhoniddin Marg'inoniy (512/1118-593/1197) kabi buyuk ustozlardan ta'lim olgan.⁵ Kardariy 642/1244 yilda vafot etgan va Buxorodagi Subazmuniy qabri oldida dafn qilingan.

Shamsul-aimma Kardariy kalom ilmiga bag'ishlangan «Ta'sisul-qavaid» (Qoidalarni joriy etish) nomli kitob yozgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Kardariy ilmida katta shuhrat qozongan, ko'p kitob yozmagan bo'lsa-da, nodir kitoblarning bizgacha etib kelishi va o'nlab shogirdlarni tarbiyalanishida katta sa'y-harakat qilgan. U Abu Zayd Dabusiyan⁶ keyin fiqh ilmini qayta tiriltirgan zot deb e'tirof etilgan⁷ va benazir olim sifatida «Shamsul-aimma» ya'ni «imomlar quyoshi» nomiga sazovor bo'lgan. Tarixda bunday nomga musharraf bo'lgan olimlar juda kam bo'lib, ular Shamsul-aimma Halvoniy, Shamsul-aimma Saraxsiy, Shamsul-aimma Zaranjariylardir. Ularning hammasi hanafiylik mazhabi bo'yicha musulmon olamida mo'tabar allomalar sifatida e'tirof etilganlar.

Abu A'lo Fardiy: «Kardariy mutlaq imomlar ustози bo'lib, uning bir necha ta'lif qilgan kitoblari bor. Shogirdlari ichida Abul Barakot Nasafiy, Sayfuddin Boxarziy, alloma Hofizuddin Muhammad ibn Nasrul-Buxoriy mashhurdir»⁸, deydi.

³ Qarang: Abul-Barakot Nasafiy. Madorikut-tanzil va haqiqi at-tavil. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi, inv. № 2583/I. –S. 1b.; Abul-Barakot Nasafiy. Al-Kofi sharh al-Vofi. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi, inv. № 3110/I. –S. 1b.

⁴ Abdulhay Laknaviy. Al-Favoidul-bahiya. –S.291.

⁵ Al-Kardariy yuqoridagi ikki ustozidan tashqari «al-Mug'rib» nomli asar sohibi Nosiriddin Mutarraziy, «Shiratul-islam» kitobining sohibi Imom Xatibzoda, Buxoroda Shamsul-aimma Imodaddin Zaranjariy (427/1036-517/1118), Sharafuddin Uqayliy va Ahmad ibn Abu Bakr Nuriddin Sobuniydan ta'lim olgan.

⁶ Buxorolik buyuk faqih, Dabusiya tug'ilgan. U ilmul-xilof (qiyosiy huquqshunoslik) fanining asoschisi bo'lib, ahli sunna mazhablari o'rtasidagi ixtilofli masalalarni tartibga solgan va ularni ilmiy uslubda o'rganish qoidalarni yaratgan. 430/1063 yilda vafot etgan.

⁷ Abdulhay Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya. –S. 291.

⁸ Shamsiddin Zahabiy. Siyar alom an-nubalo. J-23. –S. 112.



Abul Barakot Nasafiy Shamsul-aimma Kardariydan tashqari Badriddin Xoharzoda Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim (vaf. 751/1253 y.) va Hamididdin Zarir Ali ibn Muhammad ibn Ali Romishiy Buxoriydan (vaf. 666/1267-8 y.) ham saboq olgan.

Badriddin Xoharzoda Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim Shamsul-aimma Kardariyning jiyani bo'lib, u tog'asidan yaxshi tarbiya va ta'lim olgan. Keyinchalik uni yetuk ilmi sabab ko'pchilik olimlar "alloma" deb nomlashga odatlanishgan.

Hamiduddin Ash ibn Muhammad ibn Ali Hamiduddin Zarir Romushiy faqih, usul olimi, muhaddis, mufassir bo'lgan. Bu olim ham Shamsul-aimma Kardariydan ta'lim olgan.

Olim bir nechta shogirdlar etishtirib chiqargan. Ular ichida Abul Barakot Nasafiy muhim o'rin tutadi. Aytishlaricha, imom Abul Barakot Nasafiy bu olimga janoza namozini o'zlari o'qib, o'zlari qabrlariga qo'yganlar. Janoza namoziga taxminan 50 000 kishi qatnashgan.

Ushbu olimlar Abul Barakot Nasafiyning tabaqot kitoblarida zikr etilgan ustozlari bo'lib, ulardan boshqa olimlardan ham ilm olganligi qayd etiladi.

Abul Barakot Nasafiy Kirmon shahri toliblariga dars bergan va ayni shu davrda o'zining mashhur "Kanzud-daqiq", "al-Kofiy fil-Vofiy" degan kitoblarini yozib, ulardan ham dars halqalarini tashkil qilgan.

Shu o'rinda u kishining shogirdlari ichida eng mashhurlarini aytib o'tamiz.

1) Muhammad ibn Muhammad Ahmad Sanjariy. "Qivomuddin" nomi bilan tanilgan Abul Barakot Nasafiyning bu shogirdi olimning mashhur "al-Manor" asariga sharh yozgan va uni "Jomiul-asror" deb nomlangan. Bu olim Qohira shahriga kelib "Moridin" jome'sida umrining oxirigacha dars bergan. Olim 749/1348 yilda vafot etgan.

2) Hasan ibn Ali ibn Hajjoj Sig'noqiy Turkistondagi Sig'noq degan joyga nisbat berilgan. Mashhur faqih bo'lib, Hofizuddin Kabir Buxoriy, Abul Barakot Nasafiy va ustozining ustoz bo'lmish Shamsul-aimma Kardariydan ilm olgan. Bu olimning hayoti va ilmiy merosi haqida ma'lumotlar juda kam bo'lib, faqatgina vafot etgan sanasigina ma'lum. Bu 711/1311 yilga to'g'ri keladi.

3) Muhammad ibn Muhammad ibn Jabaliy "al-Manor" va "Jomi' al-asror" kitoblariga sharh yozgan bo'lib, Abdulaziz Buxoriy va Abul Barakot Nasafiyning shogirdlaridan hisoblanadi. Abul Barakot Nasafiy tafsir, aqoid, fiqh va usul al-fiqh sohalarida asarlar yozgan. Ehtimol, olimning o'z asarlarida dinga oid bu ilmlarni qamrab olishiga asosiy sabab mug'ullar davrida ushbu ilmlarni qayta jonlashtirishga ehtiyojning paydo bo'lganidadir.

Imom Nasafiyning ilmiy merosi.

Abul Barakot Nasafiyning umumiy hisobda 13 ta ilmiy asari mavjudligi va ularning barchasi bizgacha yetib kelgani aniqlangan. Bu asarlarning 5 tasi fiqh (ulardan 1 tasi qiyosiy huquqshunoslik)ga, 4 tasi kalom ilmi, 3 tasi usul al-fiqh va 1 tasi tafsirga oid bo'lib, 6 tasi chop etilgan.⁹

Madorik at-tanzil va haqiqat at-tavil; Tafsirga oid «Madorik at-tanzil va haqiqat at-tavil»(Qur'on mohiyati va ta'vil haqiqatlari) kitobi Nasafiyning eng mashhur asari bo'lib, u musulmon olamidagi Qur'onga yozilgan mo'tabar tafsirlardan biri hisoblanadi. Abul Barakotning tafsirga oid asari qolganlari ichida mavzu, uslub va ilmlarning keng qamrovligi jihatidan shoh asar hisoblanadi.

⁹ Maqsudov D. Abul-Barakot Nasafiyning tafsirilmida tutgan o'rni: Tar. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: TIU, 2008. -B. 67-75.



Umdat al-aqoid; Kalom ilmiga oid «Umdat al-aqoid»(Aqidalar asosi) asari muxtasar holda yozilgan bo'lib, kalom ilmiga oid muhim masalalarni o'zida qamragan. Bazi biograflarning ma'lumotiga ko'ra muallifning o'zi unga sharh yozib «al-Itimod» deb nomlagan. Asarning Jamoliddin Mahmud ibn Ahmad Quvnaviy (vaf. 770/1368-69 y.)ga qarashli «az-Zubda» (Qaymoq), XIV asrda yashagan Ahmad ibn Avaz Donishmand Aqshihariy Hanafiyning «al-Inqod fi sharh umdatil-i'tiqod» (Umdatul itiqodning Qutqarish nomli sharhi) nomli o'nga yaqin sharhlari mavjud.¹⁰ Shamsiddin Muhammad ibn Yusuf Rumiy Quvnaviy (788/1386 y.), Ismoil Abu Tohir Makkiy (vaf. 846/12442-3 y.) va Shamsiddin Muhammad ibn Ibrohim Niksariy (vaf. 901/1495-96 y.) kabi olimlar ham sharh yozganlar. Bu asar hali chop etilmagan.

Kanz ad-daqiq; Fiqhga oid «Kanz ad-daqiq» (Nozik masalalar xazinasi) asari islom huquqi bo'yicha mo'tabar 4 matndan biri hisoblanadi. «Kanz ad-daqiq» kitobida fiqhiy masalalar keng yoritilgan bo'lib, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Imom Muhammad, Imom Zufar, Imom Molik va Imom ash-Shofeiy kabi mujtahid olimlarning qarashlari keltirilgan. Asarda dalillar va ixtiloflarga to'xtalmagan, balki mashhur mujtahidlarning ismlariga belgi qilib, bosh harflari berilgan xolos. Masalan, «ح» - «ho» harfi Abu Hanifa, «س» - «sin» Abu Yusuf, «م» - «mim» Muhammad, «ز» - «zo» Zufar, «ف» - «fo» ash-Shofe'iy, «ك» - «kof» Molik, «و» - «vov» hanafiy mazhabi olimlari rivoyatlari uchun belgi qilib olingan. Unda ibodat (namoz, ro'za, zakot, haj), muomalot (savdo, ijara, qarz kabi odamlar o'rtasidagi munosabatlar), hadlar (jazo) kabi turli masalalar bayon etilgan. U fiqhga oid eng mo'jaz kitoblardan sanaladi. Shu sabab ham unga mutaaxxir olimlar suyanadilar va hanafiy olimlari orasida ko'p mutolaa qilinadi. Olimlar uni mashhurlikda «Muxtasar al-Quduriy»dan keyingi o'ringa qo'yadilar va mo'tabar kitoblar sirasiga kiritadilar.

«Kanz ad-daqiq»ga o'ndan ziyod sharhlar yozilgan bo'lib, ulardan Faxriddin Abu Muhammad Usmon ibn Ali Zaylaiy (vaf. 743/1342-3 y.)ning «Tabyin al-haqoiq lima fihi ma intazaa min ad-daqiq» (ad-Daqiqdan olingan masalalar haqiqatini yoritish), Badriddin Mahmud ibn Ahmad Ayniy (vaf. 855/1451 y.)ning «Rumuz al-haqaiq» (Haqiqat ishoralari), Mullo Miskin Haraviyning «Tibyan al-haqoiq» (Haqiqatlarni bayon etish), Ibn Nujaym Misriy (vaf. 970/1562-63 y.)ning «al-Bahr ar-roiq fi sharh Kanz ad-daqiq» (Kanzud-daqiqning «tiniq dengiz» nomli sharhi) kabi o'nlab sharhlarni sanab o'tish mumkin.¹¹

al-Vofiy; (Mukammal) Hoji Xalifaning «Kashf az-zunun» (Gumonlarni ochish) asarida «al-Hidoya» qatoridagi kitoblar sirasiga kiruvchi asarligi aytilgan. Unda ta'kidlanishicha, Abul Barakot mo'tabar fiqhiy asarlarda mavjud masala va fatvolarni o'zida jamlagan bir kitob yozish maqsadida bo'lgan. U bunday kitobni yozadi ham va uni «al-Vofiy» deb nomlaydi. «Al-Vofiy»ga Abul Baqo Muhammad ibn Ahmad al-Makkiy (vaf. 854/1450-51 y.) biri keng va biri qisqa bo'lgan ikkita sharh bitadi.

- «Kashf az-zunun»da yana quyidagi malumotlarni o'qish mumkin: Abul Barakot «al-Hidoya»ga sharh yozmoqchi bo'lganda, o'sha zamonning buyuk olimlaridan Toj ash-sharia uni bu fikrdan qaytaradi. So'ngra, Abul-Barakot fiqhga oid «al-Vofiy» va uning sharhi «al-Kofiy sharh al-Vofiy» asarlarini yaratadi. Bu bilan u, go'yo, «al-Hidoya» kitobini tasnif etib, unga

¹⁰ Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. – Istanbul: al-Olam nashriyoti, – J. II. (Bundan keyin: Hoji Xalifa. Kashf az-zunun) –S. 134.

¹¹ Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. – Istanbul: al-Olam nashriyoti, – J. II. (Bundan keyin: Hoji Xalifa. Kashf az-zunun) –S. 135.



sharh bitganday bo'ladi. Mazkur asar boshqa mashhur kitoblar qatori katta obro'ga ega bo'ladi.¹² U chop etilmagan.

«Al-Vofiy» asari «al-Jomi as-sag'ir», «al-Jomi al-kabir», «az-Ziyodot» (Ziyoda masalalar), «Muxtasar al-Quduriy» (Quduriyning qisqartirilgan asari), «Manzumat al-xilafiyat» (Qiyosiy huquqshunoslikka oid nazm) va fatvo kitoblaridagi turli masalalarni o'zida jamlagan. U fiqhga oid barcha kitoblar kabi tahoratdan boshlangan.¹³ Lekin «al-Hidoya», «Muxtasar al-viqoya» (Viqoyaning qisqartirilgani) kabi asarlardan farqli o'laroq, «al-xunasa» bobi tugagach, «al-faroiz», yani meros ilmi bobi bilan kitobni xotimalaydi. Asar tartib jihatidan Muhammad ibn Hasanning «al-Jomi as-sag'ir» kitobiga o'xshab ketadi.¹⁴ Unda «Kanz ad-daqiq»da keltirilganidek, mazhab mujtahidlarining fikrlariga ishoralar uchraydi. Masalan, «ho» harfi Abu Hanifa, «sin» Abu Yusuf, «mim» Imom Muhammad, «zo» Imom Zufar, «fo» Imom ash-Shofeiy, «kof» Molik ibn Anas, «vov» mazhab ashoblariga ishora sifatida ishlatilgan.

Yuqorida aytilganidek, unda mo'tabar fiqhiy kitoblarda mavjud masalalar jamlangani bois qimmatli asar hisoblanadi. Toshko'prikzoda uni mo'tabar, Hoji Xalifa maqbul, Laknaviy latif kitoblar qatorida sanaydi.

Olim o'zining «al-Kofiy» (Kifoya qiluvchi)ni 684 yil Ramazon oyining 24 kuni/1285 yil noyabrda yozib tugatgan. Fikrimizcha, bu kitob Abul Barakot Kirmondagi madrasada «al-Vofiy»dan dars berib yurgan kezlarida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Chunki talabalar «al-Vofiy»ni osonroq va tezroq tushunishlariga ehtiyoj sezilgan. Abul Barakot talabalarning shu ehtiyojini qondirish maqsadida unga sharh bitgan.

Asarda namoz, ro'za, zakot, haj, nikoh, savdo-sotiq kabi turli fiqhiy masalalar batafsil sharhlangan. «Al-Kofiy»ning 331 varaqdan iborat taxminan XIV asrda ko'chirilgan bir qo'lyozma nusxasi O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondida 3110/I raqami va yana bir nusxasi 3260/II (bu qo'lyozma 684/1285 yilda Kirmonda yozilgan, 743/1342 yilda ko'chirilgan, boshi yo'q, 241 varaq, 36 qator yo'l, o'lchami 23,5x31,5) raqami bilan saqlanmoqda. Uning bu yerda 3220 (Muhammad ibn Ahmad ibn Ali tomonidan XIV asrda ko'chirilgan), 4913 (II jild, matn va sharhi bilan), 2653/I (I jild, Muhammad Sobir ibn Muhammad Mumin al-Hisoriy tomonidan ko'chirilgan), 9245 (tahoratdan boshlab shirkat masalasigacha), 2411 (Muhammad Jamil ibn Muhammad Murod tomonidan 1102/1691 yilda ko'chirilgan), 4453 (684/1285 yilda Kirmonda yozilgan), 2600 (1094/1683 yilda Rahmatulloh ibn Miyon tomonidan ko'chirilgan) raqamlaridagi qo'lyozma nusxalari bor. Bu erdagi qo'lyozmalar jami 9 tani tashkil etadi. Asar chop etilmagan.

Al-Mustasfo fi sharh an-Nofi; «Al-Mustasfo fi sharh an-Nofi» (Fiqhga oid Nofining Mukammal nomli sharhi) – fiqh ilmiga oid asar. U alloma Nosiriddin Abul-Qosim Muhammad ibn Yusuf Samarqandiy (vaf. 656/1258 y.)ning «al-Fiqh an-nofi» asariga yozilgan sharhdir. Olim unda har bir masalaning dalillarini keltiravermaydi, balki ularni mujtahidlarning fikrlari orasida berib o'tadi. Lekin bunday dalillar ham ko'p bo'lib, ular xilof va dalil turkumidagi kitoblarning odatidan xoli o'laroq, batartib berilmagan. Asarda Abul Barakotning ustozlari «al-Manofi» (Manfaatlar)ning muallifi Ali Romishiyning fikrlaridan, «Usul al-Bazdaviy» asaridan

¹² Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. – Istanbul: al-Olam nashriyoti, – J. II. (Bundan keyin: Hoji Xalifa. Kashf az-zunun) –S. 626.

¹³ Abul-Barakot Nasafiy. Al-Kofi sharhil-Vafi. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondi, inv. № 3110/I. –S. 1.

¹⁴ Qarang: Al-Mazhab al-Hanafiy. J. II. –S. 480.



foydalanilgan. Ko'p bora ustozlari Kardariy tilga olingan. Kitobda ibodat, muomalot kabi ko'plab fiqhiy masalalar berilgan. Olimlar uni Hofizuddinining manfaatli va mo'tabar kitoblaridan biri sifatida qabul qiladilar. U «Kitab at-tahorat» (Tahorat kitobi) bilan boshlanib, «Kitab al-faroiz» (Meros kitobi) bilan yakunlanadi.

«**Al-Musaffo fi sharh al-manzumat an-Nasafiya fil-xilof**» (Qiyosiy huquqshunoslikka oid Nasafiy nazmining Aniqlangan nomli sharhi) fiqh ilmiga oid. Mazkur kitob 670 hijriy yil, Shabon oyining 20 chisida/1272 yilning 22 martida yozib tugatilgan bo'lib, Najmiddin Umar Nasafiyning asariga sharhdir. Umar Nasafiyning ushbu asarida jami 2669 ta bayt, 10 ta bob bor. Bu asar fiqhiy masalalar bo'yicha mazhab mujtahid olimlarining ixtilofli qarashlari bayt va qasidalar orqali o'z aksini topgan.

al-Manor; Usul al-fiqhga oid muallifning «al-Manor» (Mayoq) nomli asari usul al-fiqh va uning qonun-qoidalari haqida bo'lib, unda Quron, hadis, ijmo va qiyos asosida hukm olish kabi uslublar bayon etilgan.¹⁵ Abul Barakot Nasafiyning o'zi ushbu asarni sharhlagan va unga «Kashf al-asror» («Sirlarni ochish») deb nom qo'ygan.

Kashf al-asror; «Kashf al-asror»ning 273 varaqdan iborat 762/1361 yilda Burhoniddin Umar Xurosoniy tomonidan ko'chirilgan bir nusxasi (nasx xatida, arab tilida, o'lchami 18x26) O'ZRFASHI qo'lyozmalar fondida 5243/II va yana bir nusxasi 10127 (774/1372-4 yilda Muhammad ibn Faxriddin tomonidan ko'chirilgan) raqamlari bilan saqlanmoqda. Bu yerda kitobning 2 ta qo'lyozma nusxasi mavjud. Asar Buloqda 1316/1899 yilda 2 jildda chop etilgan. Nasafiyning izdoshlaridan Kofi Aqhisoriy «Kashf al-asror»ni tahrir qilib, mo'jaz bir kitob shakliga keltirgan.¹⁶

Aytilgan asarlar Nasafiyning diniy ilmlardagi keng qirrali bilimi va boy ilmiy merosidan dalolat beradi. Ular nafaqat o'sha davrning, balki hozirgi kunning talabiga ham javob beradi. Asarlarda ko'tarilgan masalalarning dolzarbligi bois ularga asrlar osha ko'plab sharh va hoshiyalar yozilgan.

Abul Barakot an-Nasafiy umrining oxirida Bag'dodga kelgan va 710 yil rabi' al-avval oyining juma kuni kechasi/1310 yil avgust oyida¹⁷ vafot etgan. U Isfahon yaqinidagi Izaj¹⁸ shahrida dafn qilingan.¹⁹

Ehtimol, olimning o'z asarlarida dinga oid bu ilmlarni qamrab olishiga asosiy sabab mo'g'ullar davrida ushbu ilmlarni qayta jonlashtirishga ehtiyojning paydo bo'lganidadir.

References:

1. Abul-Barakot Nasafiy. Madorikut-tanzil va haqiqut-tavil. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondi, inv. № 2583/I. –S. 1b.; Abul-Barakot Nasafiy. Al-Kofi sharhul-Vofi. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondi, inv. № 3110/I. –S. 1b.
2. Abdulhay Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya.

¹⁵ Ahmad ibn Abu Said Hanafiy Siddiqiy. Nur al-anvor fi sharh al-Manor. –S. 6-7.

¹⁶ Hoji Xalifa. J. II. –S. 519.

¹⁷ Bu sanada ixtiloflar bor. Masalan, Ibn Hajar al-Asqaloniy, Ibn Tag'ribiylar uni hijriy 701 yil deb bersalar, Abd al-Hay al-Laknaviy, al-Bag'dodiy, Kotib ach-Chalabiy, al-Qosim ibn Qutlubug'o kabilar uni hijriy 710 yil, deyдилar va bu oxirgisi etiborli bo'lgani uchun biz ham uni qabul qildik.

¹⁸ Xuziston va Isfahon oralig'idagi shahar. Ba'zi manbalarda uni Samarqand qishloqlaridan biri deyiladi.

¹⁹ Mavlono Toshko'prizoda. Tabaqot al-fuqaho. –S. 113; Abd al-Hay al-Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya. –S. 291; Zayn ad-din Qosim ibn Qutlubug'a. Toj at-tarajim fi tabaqot al-hanafiya. 1996. –S. 22.



3. Shamsiddin Zahabiy. Siyar alom an-nubalo. J-23.
4. Maqsudov D. Abul-Barakot Nasafiyning tafsirilmida tutgan o'rni: Tar. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: TIU, 2008.
5. Hoji Xalifa. Kashfuz-zunun. – Istanbul: al-Olam nashriyoti, – J. II.
6. Ahmad ibn Abu Said Hanafiy Siddiqiy. Nurul-anvor fi sharhil-Manor.
7. Mavlono Toshko'prizoda. Tabaqot al-fuqaho. –S. 113; Abd al-Hay al-Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya.
8. Zayn ad-din Qosim ibn Qutlubug'a. Toj at-tarajim fi tabaqot al-hanafiya. 1996.